
Har bir mahallada bayram shukuhi

Istiqlolimiz shodiyonasiga bag'ishlab Toshloq tumanidagi mahallalarda "Mustaqillik oqshomlari" bayram tadbirlari bo'lib o'tmoqda.

Davlatimiz mustaqilligining 33 yilligi bayrami munosabati bilan "Bir bo'lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanimiz!" shiori ostidagi shodiyonalari kecha "Quy yakkatut" mahallasida ham ko'tarinki ruhda nishonlandi.

Hududlarda keng jamoatchilik ishtirokidagi ana shunday tantanalarda istiqloq shukuhi va shukronasi aks etmoqda.

2024-08-16 12:51:16